XALQ DEPUTATLARI ULUG`NOR TUMANI KENGASHINING QARORI
Ulug`nor tumani

2022 - yil 30 - avgust VI-40-79-1-26-K/22 Ulug‘nor tuman hokimligi

Kadastr agentligi Ulug’nor tuman bo’limi boshlig’ining O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori ijrosini ta’minlash yuzasidan “Tuman ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, hududlar kesimida yer maydonlarini deshifrovkalash va yerdan foydalanuvchilar yer maydonlarini yo’qlamadan o’tkazish hamda natijalari asosida mavjud elektron raqamli qishloq xo’jalik xaritalarini yangilash to’g’risida”gi axboroti haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda tuman hokimining 2022-yil 2-aprel 68-1-26-Q/22-sonli qaroriga asosan Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Andijon viloyati Ulug’nor tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniga ko‘ra tuman hududining umumiy peremetri 126 400 metr, tuman umumiy maydoni 42 020,67 gektar ekanligi aniqlandi.

Jumladan:

Mingbuloq qishlog'ining umumiy perimetri 44027 metr, umumiy maydoni 6660,33gektar;

Mingchinor qishlog'ining umumiy perimetri 54021 metr, umumiy maydoni 11002,57 gektar;

Navoiy qishlog'ining umumiy perimetri 77754 metr, umumiy maydoni 13157,74 gektar;

Oq-oltin qishlog'ining umumiy perimetri 53077 metr, umumiy maydoni 10553,03 gektar ekanligi aniqlandi.

Shundan:

Oq-oltin shaharchasining umumiy perimetri 16860 metr, umumiy maydoni 647,00 gektarni ekanligi aniqlandi.

Ulug‘nor tuman chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman chegaralarini grafik materiallari, tasniflari hamda chegaralarni joyida chegaradosh qo‘shnilar bilan kelishganlik to‘risidagi dalolatnomalari tuzilgan.

Kadastr agentligi Ulug’nor tuman bo’limi boshlig’ining O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori ijrosini ta’minlash yuzasidan “Tuman ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, hududlar kesimida yer maydonlarini deshifrovkalash va yerdan foydalanuvchilar yer maydonlarini yo’qlamadan o’tkazish hamda natijalari asosida mavjud elektron raqamli qishloq xo’jalik xaritalarini yangilash to’g’risida”gi axborotini eshitib hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 48-son qarori, O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risidagi qonunning 27-moddasi, O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Ulug’nor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o’tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o’tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 299-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, Kadastr agentligi Ulugnor tuman bo’limi boshlig’i D.Isaqovning ulug’nor tumanining ma’muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash to’g’risidagi axboroti hamda Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Andijon viloyati Ulug’nor tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash bo’yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko’rib chiqish yuzasidan ishchi guruhning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ulug’nor tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o’tkazish natijalari asosida mavjud elektron raqamli qishloq xo’jalik xaritalarini yangilash ishlarini yakuniy natijalari to’g’risida ko’rsatkichlar keltirilgan 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ulug’nor tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, shahar, shaharchalar va qishloqlar chegarasining loyihaviy sxemasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ushbu qaror bilan tasdiqlangan Ulug’nor tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashni, yangilangan elektron raqamli qishloq xo’jalik xaritalarini tasdiqlab berish Xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashidan so’ralsin.

5. Mazkur qaror ommaviy-axborot vositalari hamda tuman hokimligigning rasmiy veb-sayt orqali e’lon qilinsin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman Kengashining Agrar, suv xo’jaligi masalalari va ekologiya masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi raisi X.Xamidov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **M. Ahmadjonov**

Xalq deputatlari Ulug‘nor tuman
Kengashining
2022 yil 30 avgustdagi
VI-40-79-1-26-K/22-son qaroriga
1-ilova

Ulug’nor tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o’tkazish natijalari asosida mavjud elektron raqamli qishloq xo’jalik xaritalarini yangilash ishlarini yakuniy natijalari to’g’risida KO’RSATKICHLAR

№	Qishloq nomi	Umumiy perimetri (metr)da	Umumiy maydoni (gektar)da
1	Mingbuloq qishlog’i	44 027	6660,33
2	Mingchinor qishlog’i	54 021	11 002,57
3	Navoiy qishlog’i	77 754	13 157,74
4	Oq-oltin qishlog’i	53 077	10 553,03
5	Oq-oltin shahrchasi	16 860	647
Tuman bo’yicha jami		**245 739**	**42 020,67**

Xalq deputatlari Ulug‘nor tuman Kengashining
2022 yil 30 avgustdagi
VI-40-79-1-26-K/22-son qaroriga
2-ilova

Ulug’nor tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, shahar, shaharchalar va qishloqlar chegarasining loyihaviy

SXEMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan	**B** gacha	Namangan viloyati
B dan	**D** gacha	Baliqchi tumani
D dan	**E** gacha	Bo'ston tumani
E dan	**A** gacha	Farg'ona viloyati

Xalq deputatlari Ulug‘nor tuman Kengashining
2022 yil 30 avgustdagi
VI-40-79-1-26-K/22-son qaroriga
3-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori ijrosini ta’minlash yuzasidan “Tuman ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, hududlar kesimida yer maydonlarini deshifrovkalash va yerdan foydalanuvchilar yer maydonlarini yo’qlamadan o’tkazish hamda natijalari asosida mavjud elektron raqamli qishloq xo’jalik xaritalarini yangilash to’g’risidagi Xalq Deputatlari Ulug’nor tuman Kengashiningqaror loyihasida Korrupsiyaviy omillarni aniqlash bo‘yicha

Ch E K L I S T

Yo‘nalishlar	**Mezonlar (korrupsiyaviy omillar)**	**Javoblar**				**Korrupsiyaviy omil mavjud norma va uning asosi**
Normalarning barqarorligi va huquqiy muvofiqligi bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	So‘zlarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi	bor	-	Yo`q	+	
	Noaniq va asossiz havolalar keltirilganligi	bor	-	Yo`q	+	
	Normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida ziddiyatlarning mavjudligi	bor	-	Yo`q	+	

Vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	Diskretsion vakolatlarning kengligi	bor	-	Yo`q	+	
	Aniq belgilanmagan vakolatlar	bor	-	Yo`q	+	
	Davlat organi tomonidan uning vakolatiga kirmaydigan masalalar bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi	bor	-	Yo`q	+	
	Vazifa yoki topshiriqni bajarish uchun ijrochida yetarli vakolatlar va resurslarning mavjud emasligi	bor	-	Yo`q	+	
	Kechiktirib tartibga solish	bor	-	Yo`q	+	
	Manfaatlar to‘qnashuvi	bor	-	Yo`q	+	
	Davlat organlarining takrorlovchi vakolatlari va vazifalarining mavjudligi	bor	-	Yo`q	+	
	Afzalliklarning asossiz belgilanishi	bor	-	Yo`q	+	
	Normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishini asossiz ravishda qoldirish	bor	-	Yo`q	+	
	Huquq va majburiyatlar o‘rtasidagi nomutanosibliklar	bor	-	Yo`q	+	
Ma’muriy tartib-tamoillar bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	Ma’muriy tartib-tamoillarning mavjud emasligi yoki to‘liq emasligi	bor	-	Yo`q	+	
	Belgilangan qoidalardan chiquvchi istisnolarni asossiz belgilanishi	bor	-	Yo`q	+	
	Vaqt chegaralarining aniq belgilanmaganligi	bor	-	Yo`q	+	
	To‘lov miqdorlari aniq belgilanmaganligi	bor	-	Yo`q	+	
	Ortiqcha va asossiz talablarning o‘rnatilganligi	bor	-	Yo`q	+	
	Sanksiyalarning nomutanosibligi	bor	-	Yo`q	+	
	Chora-tadbirlarni amalga oshirishning moliyalashtirish manbalari noaniqligi	bor	-	Yo`q	+	

Nazorat bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	Shikoyat qilish tartibining mavjud emasligi	bor	-	Yo`q	+	
	Shaffoflik va jamoatchilik nazoratini ta’minlashdagi bo‘shliqlar	bor	-	Yo`q	+	
	Davlat organlarining faoliyati ustidan nazorat qilishning shakllari va turlari belgilanmaganligi	bor	-	Yo`q	+	